

## **O‘ZBEK XALQI SHAKLLANISH JARAYONINING TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI**

**Salimov Nuriddin Odil o‘g‘li,**

*Fan va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix)*

*yo‘nalishi 2- bosqich magistranti*

[salimovn@gmail.com](mailto:salimovn@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi va uni yozma manbalarda aks etirilishidagi muammolar haqida so‘z yuritiladi. Markaziy Osiyo hududida ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarining o‘zaro ta‘siri natijasida murakkab etnik jarayonlar yuzaga kelgan. Bu jarayonlar keyinchalik mintaqaning etnogenezida muhim omil bo‘lib xizmat qilganligi analitik manbalar muhokamasi sosida yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** etnogenez, o‘zbek xalqi, tarixiy manbalar, turkiy qabilalar, migratsiya, antropologiya, arxeologiya, lingvistik, Markaziy Osiyo.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается история происхождения узбекского народа и проблемы её отражения в письменных источниках. В результате взаимодействия кочевых и оседлых культур на территории Центральной Азии возникли сложные этнические процессы. В ходе анализа источников подчеркивается тот факт, что эти процессы впоследствии стали важным фактором этногенеза региона.

**Ключевые слова:** этногенез, узбекский народ, исторические источники, тюркские племена, миграция, антропология, археология, лингвистика, Центральная Азия.

**Abstract.** This article examines the origins of the Uzbek people and the problems of its reflection in written sources. The interaction of nomadic and sedentary cultures in Central Asia gave rise to complex ethnic processes. An analysis of the sources highlights how these processes subsequently became an important factor in the ethnogenesis of the region.

**Key words:** ethnogenesis, Uzbek people, historical sources, Turkic tribes, migration, anthropology, archeology, linguistics, Central Asia.

**Kirish.** O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni Markaziy Osiyo tarixshunosligida muhim va murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masala nafaqat tarix fanida, balki etnologiya, antropologiya va arxeologiya kabi turdosh fanlarda ham keng o‘rganilgan. Chunki o‘zbek xalqining etnogenezi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot, turli etnik guruhlarining o‘zaro aralashuvi va murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan.

Markaziy Osiyo qadimdan turli sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib, bu hududda turli xalqlar, qabila va elatlar yashab kelgan. Jumladan, sak-massagetlar, so‘g‘diylar va boshqa etnoslar doimiy ijtimoiy va savdo munosabatlari orqali bir biri bilan dini, tili, ma‘daniyati qorishib kelgan. Va bu uzoq davom etgan munozarali jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonni o‘rganishda tarixiy manbalarnin o‘rni juda muhim. Qadimgi yunon, fors va xitoy manbalari, shuningdek, o‘rta asr sharq mualliflarining asarlari hududdagi etnik tarkib, siyosiy tuzilmalar va ijtimoiy hayot haqida muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu manbalar orqali nafaqat ayrim qabilalar yoki

xalqlarning nomlari, balki ularning yashash hududi, turmush tarzi va o‘zaro munosabatlari haqida ham tasavvur paydo bo‘ladi.

Shuningdek, arxeologik va lingvistik tadqiqotlar ham tarixiy manbalarni to‘ldiradi hamda o‘zbek xalqining etnogenezini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bu masalaga kompleks yondashuvni talab etadi, ya’ni turli fanlar yutuqlarini birlashtirish orqali haqqoniy xulosalarga kelish mumkin.

**Muhokama va natijalar.** Qadimgi yozma manbalar Markaziy Osiyo hududida yashagan etnik guruhlar haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Jumladan, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” asarida saklar va massagetlar haqida batafsil to‘xtalib, ularning turmush tarzi, urf-odatlar va harbiy faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. U massagetlarni jasur va jangovar xalq sifatida tasvirlab, ularning Tomiris boshchiligida Kir II qo‘shinlariga qarshi kurashganini qayd etadi.

Shuningdek, Ahamoniylar davriga oid yozma manbalardan biri — Behistun yozuvi da Doro I tomonidan boshqarilgan hududlar tarkibida saklar (Saka tigraxauda va boshqa guruhlar) tilga olinadi. Ushbu yozuvlar saklarning siyosiy tuzilmasi va ularning Ahamoniylar imperiyasi bilan bo‘lgan munosabatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Bundan tashqari, yunon-geograf olimi Strabon “Geografiya” asarida Baqtriya va So‘g‘d hududlari haqida ma’lumot berib, bu yerda yashagan aholining o‘troq hayot tarzi, sug‘orma dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanganini ta’kidlaydi. Ayniqsa, So‘g‘diylar Buyuk ipak yo‘li orqali xalqaro savdoda faol ishtirok etganligi bilan ajralib turgan.

Mazkur manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo hududida ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarining o‘zaro ta’siri natijasida murakkab etnik jarayonlar yuzaga kelgan. Bu jarayonlar keyinchalik mintaqaning etnogenezida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari hududda turli madaniy qatlamlarning mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek xalqining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Milodiy VI–VIII asrlarda Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi tashkil topishi bilan mintaqada turkiy qabilalarning siyosiy va madaniy ta’siri sezilarli darajada kuchaydi. Xitoy yilnomalari, xususan, Chjou shu va Suy shu asarlarida turklar (tujue)ning siyosiy qudrati, ularning Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelishi hamda mahalliy aholi bilan munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu manbalarda turk xoqonlari, jumladan Bumin xoqon va Istami xoqon faoliyati alohida ta’kidlanadi.

Arxeologik va yozma manbalar, xususan, Orxon-Yenisey bitiklari (Bilga xoqon va Kultegin yodgorliklari) turkiy xalqlarning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy hayoti va tilining keng yoyilganligini ko'rsatadi. Bu bitiklar turkiy tilning davlat darajasida qo'llanilganini va uning mintaqada nufuzli tilga aylanganini tasdiqlaydi.

Turkiy qabilalarning hududga kirib kelishi natijasida mahalliy eroniy tilli aholi bilan o'zaro ta'sir kuchayib, etnik aralashuv jarayoni jadallashdi. Bu jarayon haqida zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan S.P. Tolstov va B.A. Litvinskiy o'z ilmiy ishlarida batafsil tahlil qilgan. Ularning fikricha, ko'chmanchi turkiy qabilalar va o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan mahalliy aholi o'rtasida iqtisodiy, madaniy hamda til jihatdan yaqinlashuv yuz bergan.

Mazkur jarayonlar natijasida yangi etnik birliklarning shakllanishi uchun muhim zamin yaratildi. Shu bois, ushbu davr o'zbek xalqining etnogenezida muhim bosqich sifatida baholanadi. Aynan shu davrda turkiy komponent ustunlik qila boshlagan bo'lib, u keyingi davrlarda mintaqa aholisining etnik qiyofasi va til shakllanishida hal qiluvchi omilga aylangan. Tarixiy manbalarda “o'zbek” atamasi XIV asrga kelib kengroq qo'llanila boshlaydi. Bu atamaning kelib chiqishi O'zbekxon nomi bilan bog'liq bo'lib, u Oltin O'rda hukmdori sifatida Dashti Qipchoq hududida siyosiy birlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Dastlab “o'zbek” atamasi ma'lum bir siyosiy uyushmaga mansub qabilalarni anglatgan bo'lsa, keyinchalik asta-sekin etnik mazmun kasb eta boshlagan.

O'rta asr tarixchilari, xususan Sharafiddin Ali Yazdiy (“Zafarnoma”) va Abdurazzoq Samarqandiy (“Matla' us-sa'dayn”) asarlarida Dashti Qipchoq hududida yashagan qabilalar, ularning ko'chish jarayonlari hamda siyosiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Muhammad Haydar Dug'lat o'zining “Tarixi Rashidiy” asarida “o'zbek” atamasining qo'llanilishi va uning ijtimoiy-siyosiy mazmuni haqida muhim fikrlar bildiradi. Ushbu manbalar o'zbek nomining shakllanishi va keng tarqalish jarayonini o'rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

Bu davrda siyosiy omil, ya'ni markazlashgan davlat tuzilmalarining shakllanishi etnik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Dashti Qipchoq va Movarounnahr hududlarida yagona siyosiy hokimiyatning mavjudligi turli qabilalarning birlashuviga, ularning o'zaro integratsiyasiga olib kelgan.

Shu bilan birga, o'zbek xalqining etnogenezini o'rganishda tarixiy manbalar alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi. Abu Rayhon Beruniy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflar asarlari hamda zamonaviy tadqiqotchilar ishlari bu borada muhim manba hisoblanadi. Ularni tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish orqali mazkur jarayonning asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

**Xulosa** o‘rnida shun ta’kidlash joizki, zamonaviy tarixshunoslikda bu masalaga kompleks yondashuv asosida qarash, ya’ni arxeologiya, antropologiya va lingvistika ma’lumotlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni ko‘p qirrali va izchil tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, u Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi sifatida ilmiy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent. Fan, 2007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi (ko‘p jildlik). – Toshkent, 2010.
3. Abu Rayhon Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent. Fan.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma. – Toshkent. Sharq nashriyoti.
5. Мадаминова, Н. С. (2015). Зороастризм-философская культура узбеков. *Новый университет. Серия. Актуальные проблемы гуманитарных и общественных наук*, (3), 49-52.